



INNOVATIVE ASPECTS OF EXPERIMENTAL WORK ON THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC CULTURE OF FUTURE SPECIALISTS OF PRESCHOOL EDUCATION

Oygul Ashurova

lecturer

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: ecology, culture, ecological culture, aesthetic culture, nature, environmental protection.

Received: 31.05.23

Accepted: 02.06.23

Published: 04.06.23

Abstract: maintaining ecological balance in nature is one of the extremely important problems at the present time, when human influence on nature is increasing in the era of modern scientific and technological progress. Therefore, the education of the future generation of environmentally literate and mature people, the formation of ecological ideas in the minds of young people in this regard occupies a place among the urgent problems of our time. Consequently, nature protection, constant compliance with environmental requirements and prevention of environmental disasters can become not only a socio-economic, legal issue of our independent state, but also the basis of environmental policy.

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM MUTAXASSISLARINING EKOESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR TAJRIBA-SINOV ISHLARINING INNOVATSION JIHATLARI

Oygul Ashurova

o'qituvchi

Farg'onadavlat universiteti,

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ekologiya, madaniyat, ekologik madaniyat, ekoestetik madaniyat, tabiat, ekologik muhofaza.

madaniyat, madaniyat, taraqqiyoti davrida insonning tabiatga ta'siri kuchaygan bir paytda undagi ekologik muvozanatni asrash nihoyatda muhim muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham kelajak avlodni ekologik jihatdan

Annotatsiya: Hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida insonning tabiatga ta'siri kuchaygan bir paytda undagi ekologik muvozanatni asrash nihoyatda muhim muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham kelajak avlodni ekologik jihatdan

savodli va yetuk insonlar qilib tarbiyalash, bu borada yoshlар ongida ekologik tushunchalarni shakllantirish hozirgi kunning dolzarb muammolari qatoridan o‘rin egallaydi. Demak, tabiatni muhofaza qilish, ekologik talablarga har doim rioya qilish va ekologik halokatlarning oldini olish mustaqil davlatimizning sotsial-iqtisodiy, huquqiy masalasi bo‘libgina qolmay, balki ekologik siyosatning asosiga aylanishi mumkin.

ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ ОПЫТНО-ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО РАЗВИТИЮ ЭКОЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Ойгул Ашуррова

преподаватель

Ферганский государственный университет,
Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экология, культура, экологическая культура, экоэстетическая культура, природа, охрана окружающей среды.

Аннотация: поддержание экологического равновесия в природе является одной из чрезвычайно важных проблем в настоящее время, когда влияние человека на природу возрастает в эпоху современного научно-технического прогресса. Поэтому воспитание будущего поколения экологически грамотных и зрелых людей, формирование экологических представлений в сознании молодежи в связи с этим занимает место среди актуальных проблем современности. Следовательно, охрана природы, постоянное соблюдение экологических требований и предупреждение экологических катастроф могут стать не только социально-экономическим, правовым вопросом нашего независимого государства, но и основой экологической политики.

KIRISH

Insoniyat o‘z taraqqiyotining ilk bosqichlarida tabiatga bo‘ysunardi. Tabiat hodisalaridan cho‘chib, ularni bartaraf etolmasdi, chunki u hali tabiat qonunlarini bilmasdi. Endilikda insoniyat ham aqlan, ham ma’nan yetildi. Tabiatni o‘rgandi, bildi, qurdi, yaratdi, uning hodisalarini o‘ziga bo‘ysundirdi. Odamzot doimo tabiat qo‘ynida faoliyat ko‘rsatadi, u bilan uzlusiz munosabatda bo‘ladi. Bu faoliyat oqilona tashkil etilmasa va u bilan munosabat to‘g‘ri o‘rnatilmasa, inson o‘zi

va tabiat uchun muammolar keltirib chiqaradi. Mazkur muammolardan biri ekologik muammodir.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish shu kunning eng muhim ekologik muammo hisoblanadi va bu muammo hamma aholi hamda ular yashayotgan davlatlar manfaatini o‘z ichiga qamrab oladi. Bu muammo hayotning barcha muammolaridan farq qilgan holda, [Yer yuzidagi jonzotlar](#), shu jumladan, eng avvalo insonlar salomatligini saqlashni ko‘zda tutadi.

ASOSIY QISM

Ekologik madaniyat tushunchasi ekologik ta’lim bilan chambarchas bog’liqdir. Ta’limning boshqa an'anaviy shakllaridan farqli o’laroq, atrof-muhit madaniyati yaxlit jarayon (atrof-muhit madaniyatini bir butun deb hisoblaydi) va umrbod o’rganishdir. Bu ekologik muammolarni o’rganadigan va aniqlaydigan mas’uliyatlari odamlarni yaratishga qaratilgan.

Boshqa tomondan, ekologik madaniyat nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish yoki atrof-muhit to’g’risidagi ma’lumotlarni nashr etishni anglatmaydi. Aksincha, muammolarni hal qilish uchun shaxslarni tanqidiy fikrlashga o’rgatishda betaraf bo’ling. Uning asosiy tamoyillari onglilik, bilim, munosabat, ko’nikma va ishtirok etishdir.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlarini mazmuni va mexanizmini nazariy tahlil qilish ishning ekng ahamiyatli qismini takomil qiladi. Tadqiqot jarayonida muammoning amaldagi holatini o’rganish, mavjud ma’lumotlarni tahlil etish, muayyan xulosalarga kelish, chiqarilgan xulosalar asosida umumiy holatga baho bershga yo‘naltirilgan amaliy faoliyat alohida o‘rin egallaydi.

Dastlabki asoslovchi tajriba ishlarining muayyan loyiha asosida olib borish amaliy faoliyat samarasini ta’minladi.

Nazariy asos bo‘lgan loyihaning mohiyati va mazmuni quyidagilarni qamrabolishni nazarda tutadi:

Tashkiliy tayyorgarlik bosqichi. Bunda tajriba-sinov ishlarini amalga oshiruvchi ob’ektiv va sub’ektiv omillar aniqlandi.

- tajriba-sinov ishlarini yo‘lga qo‘yish uchun imkon beruvchi tajriba-maydonlari tanlandi;
- tajriba-sinov ishlarining sub’ekti sifatida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari soni aniqlandi, ular tasodifiy tanlov asosida tajriba va nazorat guruqlariga ajratildi;
- oliy ta’lim muassasalarida muammo yuzasidan tashkil etiladigan sinov ishlarining izchil va uzviyligini ta’minlovchi mas’ul shaxslar belgilandi;
- tajriba-sinov ishlari uchun dastlabki ishlanmalar tayyorlandi;

• pedagogika oliy o‘quv yurtlari “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi o‘quv rejasida belgilangan bir qator mutaxassislik fanlari, ekologik ta’lim dasturlari, shuningdek, ekologik tarbiyaviy tadbirlarning bo‘lajak tarbiyachilarni ekoestetik madaniyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlari nazariy jihatdan tahlil etildi;

• sotsiologik so‘rovlar (anketa, test, suhbat, intervyu)ni tashkil etish asosida bo‘lajak tarbiyachilarda ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda ekologik ta’lim va tarbiyaning roli va talabalarining kasbiy sifatlarining shakllanganlik darajasi aniqlandi.

Tajriba - sinov ishlarining bosqichlarini belgilashda quyidagi tamoyillarga amal qilindi; uzviylik, ilmiylik, izchillik, tizimlilik, mantiqiylik, o‘zaro aloqadorlik va xokozolar.

Tajriba ishlarining har bir bosqichi uchun aniq maqsad va vazifalar belgilanib, ularning to‘la bajarilishiga e’tibor qaratildi.

Tajriba - sinov ishlari quyidagi 3 bosqichda olib borildi:

1. Tayyorgarlik bosqichi.
2. Tajriba- sinov ishlarini bevosita tashkil etish bosqichi.
3. Yakunlovchi bosqich.

Tajriba sinov ishlarini tashkil etishda asosiy e’tibor quyidagilarga qaratildi:

1. Pedagogik kuzatuvni tashkil etish
2. Muammoning nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilganlik holatini aniqlash maqsadida suhbatlar tashkil etish.

3. Anketa va test so‘rovnomalarini o‘tkazish.

4. Bo‘lajak tarbiyachilarda ekoestetik madaniyatni rivojlantirishda ekologik ta’lim-tarbiya mazmunini tashkil etuvchi omillarni aniqlash.

5. Muammoga oid manbalarni o‘rganish va ularga doir omillar haqida ma’lumotga ega bo‘lish.

6. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari ishtirokida o‘tkazilgan anketa va test so‘rovnomalar natijasida tadqiqot faoliyatini yanada boyitish.

7. Bo‘lajak tarbiyachilarda ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda ekologik ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning metod va vositalarini aniqlash.

“Kishilar jamiyatini tabiatga qarshi qo‘yadigan, odamlar bilan tabiat o‘rtasidagi aloqani istisno qiladigan idealistik qarashlarga qarshi o‘laroq tabiat bilan inson o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlikni asoslash va ko‘rsatish muhim ahamiyatga molikdir. Tarixga ikki tomonidan qarash mumkin, uni tabiat tarixi va insonlar tarixiga bo‘lish mumkin. Biroq har ikki tomon chambarchas bog‘liqdir. Insoniyat jamiyatni mayjud ekan, tabiat tarixi va insonlar tarixi bir-birini o‘zaro quvvatlab turadi”[1, 59]. Oliy ta’lim muassasalari “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishlarida ta’lim-

tarbiya jarayonidagi ijobiy, ilg‘or tajribalarni o‘rganish respondent-talabalarning fikr-mulohazalarini inobatga olish ham tadqiqot oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish imkonini beradi.

Tadqiqot muammosi ustida izlanish va bo‘lajak tarbiyachilarda ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda ekologik ta’lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalar faoliyatini bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, suhbat hamda pedagogik testlarni tashkil etish, shuningdek, axborot texnologik usullar kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotni amalga oshirishda empirik va nazariy tahlil asosida ish ko‘rildi.

Jumladan, empirik tadqiqot jarayonida:

- maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari faoliyatining o‘zaro aloqasi yuzaga keltirildi;
- bilim berish jarayoni an’anaviy shaklda bo‘lib, u tadqiqot maqsadi tomon yo‘naltirildi;
- suhbat, kuzatish, tajribalar o‘tkazish kabi metodlardan foydalanildi;
- olingan natijalar asosida muayyan tavsiya ishlab chiqildi.

Nazariy-ilmiy tadqiqot jarayonida:

- maxsus tayyorlangan mutaxassis yordamida ilmiy tadqiqot amalga oshirildi;
- ilmiy bilim jarayoni maqsadga yo‘naltirilgan tizim asosida amalga oshirildi;
- maxsus innovatsion metodlardan foydalanildi (test, tanqidiy fikr, muammoli vaziyat);
- olingan natijalar ijobiy yangilik sifatida qabul qilindi.

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida quyidagi vazifalar hal etildi.

1. Amaliy faoliyat jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarning ekoestetik madaniyatini rivojlanganlik darajasini ifodalovchi ma’lumotlarni umumlashtirish.

2. Umumlashtirgan materiallarni matematik-statistik metod orqali qayta tahlil etish.

3. Matematik-statistik tahlil natijasiga ko‘ra umumiylar xulosalar chiqarish.

Tadqiqot muammosini hal qilishda bo‘lajak tarbiyachilarda ekoestetik madaniyatni rivojlantirishda pedagogik jarayonni tashkil qilishga yordam beruvchi omillar o‘rganilib, ulardan tadqiqot davrida foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi asoslandi. Bizning nazarimizda samarali omillar quydagilardir:

a) obyektiv omillar:

- oliy ta’lim tizimidagi “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishini modernizatsiya qilishga qaratilgan me’yoriy hujjatlar;
- bo‘lajak tarbiyachilarni ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda pedagogik jarayonni innovatsion asosda tashkil etishga doir ijtimoiy-falsafiy, psixologik, tarixiy, pedagogik va huquqiy adabiyotlar, o‘quv manbalari, internet materiallari;
- xalq pedagogikasida ifoda etilgan tarbiyachilik kasbi egalari to‘g‘risidagi qarashlar;

- so‘ngi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda amalga oshirilgan tub islohotlar: ilm-fan, texnika, texnologiya va madaniyat (san’at va sport) sohalarida erishilgan yutuqlar;

- haqiqiy tarbiyachiga xos bo‘lgan xislatlar, shuningdek tarbiyachilik kasbiga nomunosib bo‘lgan xatti-harakatlarni yorituvchi tarixiy, badiiy va hujjatli materiallar.

b) subyektiv omillar:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan maktabgacha ta’lim tizimiga ko‘rsatilayotgan g‘amho‘rlik va maktabgacha ta’lim muassasalarini isloh qilish borasida olib borilayotgan harakatlar mohiyatini tushunish va ongli munosabatda bo‘lish;

- xalq hurmatiga sazovar bo‘lgan tarbiyachi-murabiylarning ekologik ta’lim-tarbiyaga doir ibratli ishlari.

Tadqiqot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarini ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda ekologik ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning tizimliligini ta’minalashga quyidagi shartlariga qat’iy amal qilish asosida erishish mumkinligiga ishonch hosil qilindi:

1. Bo‘lajak tarbiyachilarini ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda yangicha ekologik ta’lim-tarbiyadan foydalanish ijtimoiy zaruriyat sifatida e’tirof etilganligi.

2. Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishdagi maqsadning aniqligi.

3. Asosiy maqsad doirasida tajriba ishlarining har bir bosqichida muayyan vazifalarning hal etilganligi.

4. Tajriba-sinov ishlarini puxta asoslangan loyiha asosida tashkil etilishi.

5. Talablarni mustaqil, erkin fikrlash qobiliyatlariga ega ekanliklari va kasbiy mahoratga ega bo‘lish extiyojini anglay olganliklari.

7. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini ekologik ta’lim tarbiyani va amaliyotni to‘laqonli o‘tashlari uchun shart-sharoitlarni yaratilganligi.

“Ma’lum bo‘ldiki, inson tabiatning tarkibiy qismi sifatida u bilan birlashtirish yashaydi. Inson tabiatdan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish jarayonida unga turli ta’sirlarni o‘tkazadi. Masalan, ozuqa va xom ashyo olish m aqsadida ko‘plab maydonlarda o‘zi xohlagan ekinlarni yetishtiradi, yerlarni haydaydi, sug‘oradi yoki turli sanoat ishlab ch iqrish korxonalarini tashkil etish uchun konlar ochadi. Insonning bunday ishlab chiqarish faoliyatları turlarini sanab adog‘iga yetish qiyin. Insonlar va ulardan tashkil topgan jam iyat mayjudligini taraqqiyotning moddiy negizi hisoblangan tabiatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi”[2, 10].

Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida, shu jumladan “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha bo‘lajak tarbiyachilarini ekoestetik madaniyatni rivojlantirish muvafaqqiyati mazkur jarayonda ekologik-ta’lim tarbiya to‘g‘ri tashkil etilishi hisobiga ta’milanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, hozirgi kunda “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha talabalarning ekologik-

ta’lim tarbiyasi uzlusiz amalga oshirilmog‘i darkor. Ekologik-ta’lim tarbiya jarayoni har bir bosqichda talabalarga o‘ziga xos ekologik muammolarni o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, bo‘lajak tarbiyachilarning ekologik-estetik sifatlarini ketma-ketlik asosida, to‘liq shakllantirishga qaratilgan. Shu sababli ilmiy ishda tadqiq etilgan bo‘lajak tarbiyachilarni ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda uzlusiz ekologik ta’lim-tarbiya tizimi va mazmuni - ta’limning uzviylik va uzlusizlik tamoyiliga asoslanadi.

Uzlusiz ta’lim tizimi – kadrlar tayyorlash jarayonining asosidir. Uzlusiz ta’lim tizimi, ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning zaruriy shart-sharoitlarini yaratadi.

Pedagogik uzviylik – bu didaktik tamoyil (o‘quv jarayonining mazmuni, tashkiliy usul va shakllarni belgilab beruvchi asosiy qoida), sharoit (ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi holatlar), harakatga keltiruvchi kuch (ta’lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi omil), ta’lim, rivojlanish va tarbiya jarayonida majburiy bajarilishi kerak bo‘lgan talab sifatida izohlanadi. Shu jihatdan pedagogik amaliyot jarayonining uzviyligi ham har bir bosqichda olingan kasbga oid nazariy bilimlarni amaliyotda takomillashtirish, ta’lim mazmunining muayyan ketma-ketlikda, tizimli joylashtirilishi, o‘quv-tarbiya jarayoni bosqichlarining davomiyligini ta’minlaydi.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassisrining ekoestetik madaniyatini rivolantirishda ekologik ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri tashkil etish quyidagi vazifalarni bajarish zarurligini asosladi:

- bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassisrining ekoestetik madaniyatini rivolantirishda uzlusiz ekologik ta’lim-tarbiyaning uyg‘unligi;
- bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassisrining ekoestetik madaniyatini rivolantirishda ekologik ta’lim-tarbiyani tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- pedagogika oliy ta’lim muassasalari “maktabgacha ta’lim” yo‘nalishlari uchun ekologik va falsafiy fanlaridan beriladigan nazariy bilimlarning amaliyotda qo‘llash texnologiyasi;
- tadqiqot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarning tanlagan kasbiga nisbatan qiziqish va ehtiyojlarini shakllantirishga oid metodik ko‘rsatmalar;
- ekologik ta’lim-tarbiya jarayonida olib boriladigan faoliyatning hozirgi zamon axborot texnologiyalari asosida tashkil etishga qo‘yiladigan talablarning amalda qo‘llanishi;
- “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Maktabgacha ta’lim muassasai “Konsepsiysi”, “Bolajon” tayanch dasturi, “Barkamol avlod” Davlat dasturi “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi kabi me’yoriy hujjat va adabiyotlarni maktabgacha ta’lim muassasai ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishi.

- bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxasislarining yuksak ekologik va axloqiy-estetik sifatlarni egallashlari borasida pedagogik jarayonini tizimli tashkil etish;
- bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxasislarda o'z tanlagan kasbiga nisbatan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;
- bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxasislariga xos bo'lgan kasbiy hamda shaxsiy sifatlarni shakllantirish, bolalarni sevish, ularning taqdiriga befarq bo'lmaslik va javobgarlik mas'uliyatini his qilishlariga erishish;
- bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxasislarida maktabgacha ta'lim muassasalari uchun joriy etilgan qonunlar, qoidalar, shuningdek, me'yoriy hujjatlarda ifoda etilgan talablar mohiyatini to'laqonli anglash va ularga qat'iy amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- ekologik ta'lim tarbiyaning jarayonida egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga doir texnologiyalarni ishlab chiqish;
- bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxasislarida ekologik faoliik, tashabbuskorlik, jamoatchilik va tadbirdorlik sifatlarini shakllantirish.

XULOSA

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxasislari ekoestetik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ekologik-ta'lim tarbiya jarayonida intizomli bo'lishlari, mas'uliyatni his etishlari, mehnatga ijobjiy yondashishlari, topshirilgan vazifalarni o'z vaqtida sifatli bajarishlari ham ularda ekoestetik madaniyatning tarkibiy unsurlarini shakllantirishga yordam beradi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida ilmiy adabiyotlarni o'rghanish va taxlil qilish pedagog-olimlardan M.Maqsdanova va Z.Ochilovlar bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxasislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalarini tadqiq etganliklarini ko'rsatdi. Ular talabalarni kasbiy madaniyatga tayyorlash mazmunini quyidagicha tasvirlaganlar:

1. Orientir olish aqliy bilish komponenti; (Mutaxassisni aqliy rivojlanishi)
2. Undaydigan ehtiyoj – tanlangan kasbiga ijodiy munosabatda bo'lish va tarbiyachi shaxsini rivojlanishiga mavjud imkoniyati;
3. Ijro etuvchi imkoniyatlar tarbiyachini kasbiy mahorati va madaniyati darajasini rivojlanib borishi.

Tadqiqotni amalga oshirishda tajriba-sinov ishlarining samarali yakunlanishini kafolatlovchi shakl, metod va vositalarni aniqlashga ham alohida e'tibor qaratildi. Jumladan:

Muammoga oid suhbat, uchrashuv, bahs-munozara, kecha, haftalik, seminar va tanlovlardan shakllaridan foydalanish talabalarning ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida ekoestetik madaniyatni rivojlantirishga yordam berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Ergashev, M.Yulchiyeva, O'.Ahmedov, A.Abzalov. Ekologiya. Darslik. Toshkent, 2018 y.
2. P.S.Sultonov. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. Darslik. Toshkent, 2017 y.
3. Egamberdiyev R, Eshchonov R. Ekologiya asoslari. T.: «Zar qalam», 2004.
4. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T.: «O_zbekiston», 2003-y.
5. Pulatova, N. (2022). THE ESSENCE AND THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF ETHNOECOLOGICAL CULTURE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(1), 33-45.
6. Пулатова, Н. Р. (2023). АҲОЛИНИНГ ИЖТИМОЙӢ ФАОЛИЯТИДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ ШАКЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *Gospodarka i Innowacje*, 34, 167-169.
7. Pulatova, N. (2019). SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL BASIS FOR IMPROVEMENT OF ETHNECOLOGICAL CULTURE AMONG STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2019.
8. Pulatova, N. (2019). SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL BASIS FOR IMPROVEMENT OF ETHNECOLOGICAL CULTURE AMONG STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2019.
9. Pulatova, N. (2021). MODERN PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR THE FORMATION OF ETHNECOLOGICAL CULTURE IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(05), 108-113.
10. Egamberdieva, T. A., & Pulatova, N. R. (2020). METHODS OF USING AVESTO TEACHING IN THE FORMATION OF ETHNOECOLOGICAL CULTURE IN YOUNG PEOPLE. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(6), 271-277.
11. Боротов, А. (2022). ХУСУСИЙ МУЛҚ ҲУҚУҚИНИ ИШОНЧЛИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ТАКОМИЛ ЙЎЛИДА. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 96-102.
12. Khomidovich, B. A. (2023). DEVELOPMENT OF PRIVATE PROPERTY AND BUSINESS. *World Bulletin of Management and Law*, 18, 105-107.
13. Боротов, А. Х. (2021). ХУСУСИЙ МУЛҚ ҲУҚУҚИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ШАРТЛАРИ: DE YURE/DE FACTO. *ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, 6(5).

14. Baratov, M., & Borotov, A. (2021). METHODS AND RESOURCES OF REALIZING THE RIGHT OF PRIVATE PROPERTY OR THE RIGHT TO USE THE LAND AS AN ELEMENT OF PRIVATE PROPERTY. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.4 Legal sciences).
15. Арипов, З., & Сайдумарова, М. (2021). Zamonaviy o'qitish metodlari orqali iqtidorli o'quvchilarni tarbiylash va rivojlantirish. *Общество и инновации*, 2(12/S), 86-92.
16. Toirjonovich, A. Z. (2022). XALQ O'YINLARINING ETNOPEDAGOGIK TASNIFI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 77-81.
17. Арипов, З. Т. (2020). Процесс Формирования Коммуникативно-Речевой Готовности Старших Дошкольников К Обучению. In *Проблемы Филологического Образования* (pp. 108-112).
18. Toirjonovich, A. Z. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 92-96.
19. Aripov, Z. (2023). MODERN REQUIREMENTS FOR THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF A TEACHER. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(7), 175-178.
20. Aripov, Z., & Oripova, O. (2023). ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALAR E'TIBOR MARKAZIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 135-138.
21. Zoirjon, A., & Ominaxon, O. (2022). NUTQ BUZILISHI TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATALRI. *Research Focus*, 1(4), 216-221.
22. Toirjonovich, A. Z. (2023). Creative Self-Development of the Personality of the Future Teacher. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 4(2), 49-56.
23. Abdurahmanova, A., & Sharipova, K. (2022). ORPHANS AND CHILDREN DEPRIVED OF PARENTAL CARE IN SCHOOLS PROBLEMS IN QUALITY EDUCATION AND UPBRINGING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(4), 417-419.
24. Шарипова, К. (2023). СЕМЬЯ, МАХАЛЛЯ, ШКОЛЬНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE* 2022, 2(18), 53-57.
25. АБДУРАХМОНОВА, М., ШАРИПОВА, К., & МАДАЛИЕВА, Ф. ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ИЖТИМОИЙ ИШНИНГ ЎРНИ. *СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука"*, 27-28.

26. A'Zamova, Z., & Sharipova, K. E'Zozaxon Tursunaliyeva (2022). *YETIM VA OTA-ONA QARAMOG 'IDAN MAHRUM BO 'LGAN BOLALARNI MAKTABLARDA SIFATLI TA'LIM VA TARBIYA OLISHDAGI MUAMMOLARI*. *Research Focus*, 1(2), 301-306.
27. Abdurakhmonova, M., & Sharipova, K. (2022). SOCIAL WORK CARRIED OUT IN SECONDARY SCHOOLS WITH STUDENTS LEFT ORPHANS AND WITHOUT PARENTAL CARE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(02), 52-63.
28. Холматов, Н. Б., & Имомова, Н. А. (2010). Ўзбекистонда саноатлаштириш сиёсатини ишлаб чиқиш ва амалга оширишнинг илмий-назарий жиҳатла. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (1-2), 20-24.
29. Имомова, Н. А. (2022). МАМЛАКАТИМИЗДА МЕХНАТ МИГРАЦИЯСИ ТИЗИМИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 1093-1102.
30. Имомова, Н. А. (2020). Молодежные перспективы в занятости узбекистана. In *НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 117-119).
31. Имомова, Н. А. (2021). Ўзбекистонда ишчи кучи миграция жараёнларининг замонавий жараёнлари. *журнал социальных исследований*, 4(1).
32. Ashurova, O. (2021, December). The importance of aestheticity of ecological consciousness and culture in the activities of preschool educational professionals. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 88-90).
33. Ashurova, O. (2021). Analysis of foreign experience on the development of eco-aesthetic culture of future preschool education specialists. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1478-1484.
34. Anvarjonovna, A. O. (2021, December). Methodological Foundations for Development of Aesthetic Culture Teacher of Preschool Education. In *international conference on multidisciplinary research and innovative technologies* (Vol. 2, pp. 254-258).
35. Ashurova, O. A. (2021). Socio-historical traditions of development of ecoesthetic culture of preschool educational professionals. *Current research journal of pedagogics*, 2(05), 46-52.
36. Ashurova, O. A. (2021). AESTHETIC EDUCATION AS A FACTOR OF PROFESSIONAL TRAINING OF PRESCHOOL TEACHERS IN A PEDAGOGICAL UNIVERSITY. *Theoretical & Applied Science*, (5), 425-427.
37. Anvarjonovna, A. O. (2022). TECHNOLOGY OF DEVELOPMENT OF ECOESTHETIC CULTURE OF FUTURE SPECIALISTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL

INSTITUTIONS. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(11), 7-12.

38. Ashurova, A. O. (2023). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL GROUNDS FORMATION OF ECOLOGICAL COMPETENCE OF KINDERGARTEN FUTURE SPECIALISTS. *Conferencea*, 134-140.

39. Anvarjonovna, A. O. (2022). TECHNOLOGY OF DEVELOPMENT OF ECOESTHETIC CULTURE OF FUTURE SPECIALISTS OF PRESCHOOL EDUCATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 1186-1191.

40. Anvarjonovna, O. A. (2022). ECO AESTHETIC EDUCATION OF FUTURE SPECIALISTS OF PRESCHOOL EDUCATION ARTICLE IN THE MAGAZINE FOR STUDENTS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 3(12), 152-161.

41. Anvarjonovna, A. O. (2022). Modern Form Methods and Tools for the Development of Ecoequal Culture of Future Preschool Specialists. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(6), 46-50.

42. Ашуррова, О., & Юсупжонова, М. (2022). БЎЛАЖАК МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУТАХАССИСЛАРИНИНГ ЭКОЭСТЕТИК МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МАВЖУД ҲОЛАТИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 4), 105-111.

43. Anvarjonovna, A. O. (2021). Technology for the Development of Eco-Aesthetic Culture of Future Preschool Education Professionals. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2(9), 15-19.

44. Anvarjonovna, A. O. (2021). Innovational Pedagogical Components Of Formimg Eco-Aesthetic Attitude To Nature In Preschool Children. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(4).

45. Anvarjonovna, A. O. (2021). AESTHETIC CULTURE OF THE EDUCATOR. In *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences* (pp. 253-255).

46. АШУРОВА, О. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития"*, (4), 13-16.

47. Anvarjonovna, A. O. (2021). Factors for the Development of Ecoesthetic Culture of Future Preschool Educational Professionals. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(5), 162-164.